O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 9 - avgust 458-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida 2022-yil 1-avgustdagi 339-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6196-sonli va 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmonlariga muvofiq shuningdek, ichki ishlar organlarining transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyatini samarali tashkil etish, 2022-yil 1-avgustdagi PQ-339-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-avgustdagi 339-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, Toshkent viloyati hokimining ayrim qarorlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimining moliya va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi boshlig‘i M.Fayziyev hamda viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i T.Aripov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 9 avgustdagi
458-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hokimining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi “Ichki ishlar organlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2883-sonli qaroriga asosan, Toshkent viloyati hokimining 2017-yil 31-maydagi 276-sonli qarori quyidagi so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

“transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmalari hamda Metropolitenda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentiga bo‘ysunadi;

Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalari viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi hamda ichki ishlar bosh boshqarmalarning tarkibiy bo‘linmalari hisoblanadi va tegishincha ularning boshliqlariga – faoliyatni tartibga solish bo‘yicha kundalik masalalar yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentiga – xizmat faoliyatini amalga oshirish masalalari yuzasidan bo‘ysunadi”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4229-sonli qaroriga asosan, Toshkent viloyati hokimining 2017-yil 13-martdagi 207-sonli qarori quyidagi so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

“O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti (keyingi o‘rinlarida – Departament) tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Departamentning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

Metropoliten, temir yo‘l, havo-transport va turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida (keyingi o‘rinlarda – transport va turizm obyektlari) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

Transport va turizm obyektlari hududlarida kriminogen vaziyatni tizimli tahlil qilish, yo‘lovchi va turistlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sabablari va

sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Yo‘lovchilarni harakatlanish xavfsizligini, temir yo‘l va havo transportida tashiladigan tovar-moddiy boyliklarning butligi va qo‘riqlanishini samarali ta’minlash;

Transport va turizm obyektlarida terroristik tahdidlarni, giyohvand vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi, radiaktiv, zaharli, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharlovchi moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni tashkil qilish;

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda transport va turizm obyektlari va ularga tutash hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning markazlashgan muvofiqlashtirilgan boshqaruvini amalga oshirish”.

“O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Xavfsiz turizmni ta’minlashni muvofiqlashtirish boshqarmasi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining Xavfsiz turizm boshqarmasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.